

TILSHUNOSLIKNING NAZARIY VA AMALIY MASALALARI

Akramova Shohista Zokir qizi

O'zDJTU, Filologiya va tillarni o'qitish: turk tili 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilshunoslikning nazariy va amaliy masalalarini ko'rib chiqamiz. Nazariy tilshunoslik tilning fonologiya, morfologiya, pragmatik va semantik tizimlarini ilmiy asosda tahlil qilib, umumiy tamoyillarni aniqlashga xizmat qiladi. Amaliy tilshunoslik esa ushbu nazariy bilimlarni hayotga tatbiq etadi va tarjima, lug'atchilik, til o'qitish metodikasi, nutq madaniyatida til masalalarini hal etishga yo'naltirilgan.

Kalit so'zlar: nazariy, amaliy, tilshunoslik, fonologiya, morfologiya, semantik, pragmatik

Abstract. This article examines the theoretical and applied issues of linguistics. Theoretical linguistics analyzes the phonetic, lexical, grammatical, and semantic systems of language on a scientific basis and serves to identify general principles. Applied linguistics, in turn, puts these theoretical insights into practice and is aimed at solving language-related issues in translation, lexicography, language teaching methodology, and speech culture.

Keywords: theoretical, applied / practical, linguistics, phonology, morphology, semantic, pragmatic

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и прикладные вопросы лингвистики. Теоретическая лингвистика анализирует фонетическую, лексическую, грамматическую и семантическую системы языка на научной основе и служит выявлению общих принципов. Прикладная лингвистика, в свою очередь, применяет эти теоретические знания на практике и направлена на решение языковых задач в области перевода, лексикографии, методики преподавания языка и культуры речи.

Ключевые слова: теоретический, прикладной / практический, лингвистика, фонология, морфология, семантический, прагматический

Kirish. Tilshunoslikning amaliy va nazariy turlari mavjud bo'lib, nazariy tilshunoslik tilning strukturasi va uning ma'nosini o'rganadi. Grammatika — morfologiya, sintaksis va fonologiya fanlarini qamrab oladi. Amaliy tilshunoslik, asosan, tilshunoslikda o'rganilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash bilan shug'ullanadi. Amaliy tilshunoslik tarkibiga xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatish kiradi. Tilshunoslikda fonologiya, morfologiya, sintaksis, semantika va pragmatika til o'rganishda juda muhim o'rin egallaydi. Quyida ularning har biri haqida batafsil tushuncha beriladi.

Asosiy qism. Tilshunoslikning nazariy tamoyillari. Fonologiya (gr. rhone - tovush, logos - ta'limot) termini tilshunoslikda XIX asr oxirida nutq tovushlarining fiziologik-akustik (fizik) tomonidan funktsional (lingvistik) tomonini farqlash ehtiyoji bilan paydo bo'ldi. Fonologiya til tovush qurilishining struktur va funktsional qonuniyatlarini o'rganuvchi soha bo'lib, semiotik (ishoraviy) tizim sifatida nutqni akustik-artikulyatsion aspektida o'rganadigan fonetikadan farqlanadi. Fonetikaning birligi bevosita kuzatishda berilgan nutq tovushlari bo'lganligi kabi, fonologiyaning birligi so'zlovchilarning ana shu bevosita kuzatishda berilgan nutq tovushlari asosida yotgan tovush tipi haqidagi ijtimoiy tasavvurlaridir. Har bir fonema kishilar ongida umumiy

farqlovchi xususiyatlari asosida vujudga kelgan maxsus «akustik portret» yoki «tovush obrazi» sifatida yashaydi. Bu farqlovchi belgilar tovushlarning artikulyatsion va akustik belgilari asosida vujudga keladi va barqarorlashadi.

Morfologiya (grekcha morphe – shakl, logos – ta’limot) — til grammatik qurilishining fundamental bo‘limi bo‘lib, uning tadqiqot predmeti — so‘z shakllari tizimi (paradigma) va ular ifodalaydigan grammatik ma’nodir. U so‘zlarning lug‘aviy birlik sifatidagi mavjudligini emas, balki nutq jarayonida boshqa so‘zlar bilan sintaktik aloqaga kirishish uchun grammatik jihatdan shakllanishi (fleksiya) qonuniyatlarini tadqiq etadi. Morfologiyaning mag‘zini grammatik ma’notushunchasi tashkil etadi. Lug‘aviy ma’nodan (so‘zning bevosita borliqni ifodalovchi atash ma’nosidan) farqli o‘laroq, grammatik ma’no obyektiv borliqni emas, balki tilning o‘zidagi so‘zlar o‘rtasidagi mavhum munosabatlarni ifodalaydi. Masalan, “maktabimizning”so‘z shaklidagi -imiz va -ning qo‘shimchalari “maktab” tushunchasining mohiyatiga hech qanday o‘zgartirish kiritmaydi. Ularning yagona vazifasi — so‘zga I shaxs ko‘plikka tegishlilik va keyingi so‘zga qaratqich munosabatini berish kabi sof grammatik vazifalarni yuklashdir.

Sintaksis grekcha” Sintaksis” so‘zidan olingan bo‘lib,”Tuzish” degan ma’noni anglatadi. Sintaksis grammatikaning bir bo‘limi bo‘lib, bunda so‘zlarning va gaplarning o‘zaro aloqasini, so‘z birikmalari va gaplarni turlarini, birikish usullarini o‘rganadi. Bu jihatdan sintaksis morfologiyadan farqlanadi. Chunki morfologiya so‘zlarning tuzilishi, yasalishi, turlanishi, tuslanishi kabilarni kabilarni tekshiradi. Sintaksis esa, ana shu formalarning dindmikasini, ularning funksiyasini ma’lum bir fikrini ifodalashdagi rolini o‘rganadi. Morfologiya va sintaksis bir-birini to‘ldiruvchi, o‘zaro munosabatda bo‘lgan sohalardir. Gap-turlari – darak, so‘roq, buyruq, undov gaplarning bir-biridan farqlanishi, asosan kesmlarning qanday so‘z turkumi orqali ifodalanishiga bog‘liq.

Semantika. til yoki uning bironbir birligi so‘z, so‘zning grammatik shakli, frazeologizm, so‘z birikmasi, orqali ifodalanadigan butun mazmun, ma’no, axborot turli til birliklarining ma’noviy tomonini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi; semasiologiya. Ayrim lugaviy unsurlar tushunchalarni bildiradi, bu tushunchalarni esa faqat to‘liq gaplar va ularning qo‘shimchalari ifodalashi mumkin. Binobarin, Semantikaning o‘rganish obyekti ham, asosan, to‘liq, mustaqil ma’noli so‘zlar va gaplarning ma’nolar tizimidir. Semantika fan sifatida 19-asrning 2-yarmidan rivojlana boshlagan va hozirgacha bir-biridan sifat jihatidan farqlanuvchi bir necha bosqichni o‘tgan.

Pragmatika – yunonchada “ish”, “harakat” degan ma’nolarni anglatib, nutqdagi til birliklarining funkcionalligini o‘rganuvchi semiotika va tilshunoslikning sohasidir. U Sokratdan oldingi davrlarda ham qo‘llanishda bo‘lgan va keyinchalik uni J.Lokk, E.Kant kabi faylasuflar Aristoteldan o‘zlashtirganlar. Shu tariqa pragmatizm oqimi yuzaga kelgan. Bu oqimning asosiy taraqqiyot davri XIX-XX asrlardir. Ayniqsa, XX asrning 20-30- yillarida pragmatizm g‘oyalarining keng targ‘ibi aniq sezila boshladi. Amerika va Yevropada pragmatikaning keng yoyilishida Ch.Pirs, R.Karnap, Ch.Morris, kabilarning xizmatlarini alohida qayd etmoq kerak. XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Amerikada hukmron bo‘lgan falsafiy pragmatizm yo‘nalishining biri Charlz Pirs edi. Ushbu falsafiy tizimning asosiy g‘oyasi semiotik belgining ma’no-mazmunini ushbu belgi vositasida bajarilayotgan harakatning samarasi, natijalari, muvaffaqiyati bilan bog‘liq holda o‘rganishdir.

Tilshunoslikning amaliy tamoyillari. Tizimli-tahliliy yondashuv. Ushbu yondashuv yordamida amaliy tilshunoslikning axborot izlash tizimidagi o‘rni, uning

tarkibiy qismlari hamda lingvistik jarayonlarning bosqichma-bosqich amalga oshishi o'rganildi. Tizimning ishlash mexanizmi, ya'ni foydalanuvchi so'rovini qabul qilish, semantik tahlil, indeksatsiya va natija qaytarish bosqichlari tahlil qilindi. Qiyosiy-lingvistik tahlil. Turli tillardagi axborot izlash tizimlarining (masalan, ingliz, rus va o'zbek tillaridagi qidiruv motorlari) ishlash prinsiplari qiyosiy tahlil qilinib, til strukturasi va morfologik xususiyatlar natija aniqligiga qanday ta'sir ko'rsatishi aniqlangan.

Deskriptiv va statistik metodlar. Tadqiqotda til birliklarining (so'z, so'z birikmasi, gap) kompyuter tomonidan qayta ishlanishi jarayonlari statistik asosda qilindi. Semantik izlash tizimlarining aniqligi va samaradorligi ko'rsatkichlari raqamli ma'lumotlar orqali baholandi. Model yaratish va simulyatsiya metodi. Axborot izlash tizimlarida amaliy tilshunoslikning rolini aniqlash maqsadida nazariy model ishlab chiqildi. Ushbu model foydalanuvchi so'rovini semantik jihatdan qayta ishlash, sinonimlarni aniqlash va kontekstual bog'lanishlarni tahlil qilish jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Xulosa. Tilshunoslikning nazariy tamoyillari tilni ilmiy asosda o'rganish, uning ichki tuzilishi va rivojlanish qonuniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu tamoyillar tilning fonologiya, morfologiya, sintaksis, semantika va pragmatika tizimlarini o'zaro bog'liqlikda tahlil qilishni taqozo etadi. Amaliy tilshunoslikning axborot izlash vositasi sifatidagi ahamiyati zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlanishi bilan yanada ortib bormoqda. Tadqiqotlar natijasida ma'lum bo'ldiki, tilshunoslik faqat nazariy fan emas, balki amaliyotda ham muhim o'rin tutuvchi, inson va kompyuter o'rtasidagi muloqotni ta'minlovchi fan sohasi sifatida shakllanmoqda. Shu bilan birga foydalanuvchi so'rovlariga yanada aniq, tezkor va mazmunli javoblar olish imkoniyati yaratilmoqda. Shuningdek, amaliy tilshunoslikning rivoji avtomatik tarjima, nutqni tanish, matn tahlili va sun'iy intellekt asosidagi axborot tizimlarining samarali faoliyatini ta'minlamoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduazizov A.A. O'zbek tilining fonologiyasi va morfonologiyasi. T.:O'qituvchi, 1992.
2. Mengliyev B.R. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Fonetika-fonologiya. Grafika. Imlo. Leksikologiya-semasiologiya. Leksikografiya. I qism 2004.
3. Morfologiya Grammatika) <https://milliytil.uz/qoidalar/morfologiya/> f.f.n., dots. D.Qozoqov f.f.n., dots. M.Hamidova Ona tili Ma'ruza matnlari
4. Shahriyor Safarov. Pragmalingvistika. 2008.
5. Karimov, A. (2020). Amaliy tilshunoslik va axborot texnologiyalari
6. integratsiyasi.
7. Jo'rayev, B. (2021). Tilshunoslikda kompyuter texnologiyalarining
8. qo'llanilishi. Samarqand davlat universiteti ilmiy jurnali, №4, 45–52-betlar.
9. Yusupova, D. (2019). Axborot izlash tizimlarida tabiiy tilni qayta ishlash usullari. "Filologiya masalalari" jurnali, №2, 60–68-betlar.